

**SHIMOLIY XORAZM OG‘ZAKI DOSTONLARI LEKSIK  
BIRLIKLARNING SOTSIOPRAGMATIK TALQINI**

**Xalmuradova Jamila Ermetovna**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shimoliy Xorazm og‘zaki dostonlari (“Xirmondali” va “Qirq minglar”) ning turli baxshilar tomonidan ijro etilgan variantlari tilidagi leksik birliklarning sotsial aspektiga oid tushunchalarning adabiy tilda ifodalanishi xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Doston, turkum, leksika, sheva, leksik birlik, semantik, sotsial, sub’ektiv baho, belgi, xususiyat, harakat, holat, vaqt, o‘rin.

**Annotation:** This article describes the expression of concepts related to the social aspect of lexical units in the language of variants of Khorezm epics (“Hirmondali” and “Kirk Ming”) performed by various folk singers in the literary language.

**Key words:** Epic, category, vocabulary, dialect, lexical unit, semantic, social, subjective assessment, character, feature, action, state, time, place.

Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasi boyligi va rang-barangligi bilan ham diqqatni jalb etadi. Ularda ijtimoiy turmushning turli sohalariga oid ko‘plab so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlarning ba’zilari adabiy tilda uchramasligi va qayd etilmagani bilan xarakterlidir.

Olimlarimiz bunday so‘zlarni adabiy tilga olib kirish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.<sup>1</sup> Shu nuqtai nazardan biz tadqiq ob’ektimizda mavjud bo‘lib, adabiy tilda qayd etilmagan ayrim so‘zlarni bu o‘rinda imkon doirasida izohlashga harakat qildik.

**To‘ppoz - to‘p + boz - mohir to‘p otuvchi, to‘p otishning ustasi:** Bularding ichinda yetti ming Loxyo‘r, bir **to‘ppozi** bor edi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 23).

**So‘na - o‘rdak:** Man bir **so‘na**, ko‘ldan ko‘la porlayin uchsam, netasan? (Xo‘jyozi baxshi, Xirmondali:70).\*

**Shamxol - qadimgi og‘ir miltiq:** Karam Sulton botirni yanga aytganiday etib bog‘ladilar. Yag‘rinina ikki botmon ko‘hna **shamxol** olib kelib taqdilar (Ahmad baxshi, Qirq minglar:20). Xudoybergan baxshi variantida bu so‘zga savol tug‘ilishi e’tiborga olinib, matnning o‘zida izoh berib o‘tilgan: “Yag‘rima ham ikki botmon ko‘na **shamqol** olib kelib, taqing”, - dedi. (**Shomqol** degan miltiq

bo‘lar edi, og‘irligi. ikki botmon kelar edi) (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 21).

Ayrim o‘rinlarda dostonda uchragan, yig‘indagi tinglovchilarga notanish

\* Aslida Xo‘janiyoz baxshi Vais o‘g‘li bo‘lgani holda biz mahalliy xalqda urf bo‘lgan va asl nusxada keltirilgan Xo‘jyozi baxshi ko‘rinishini saqladik.

so‘zlar baxshi tomonidan ko‘pincha matnning o‘zida bir so‘z bilan, ya’ni o‘sha so‘zning muqobili bilan izohlab ketilgan. Bundan xulosa shuki, ijrochi o‘z tinglovchilarining kimlar va qaysi hududga mansubligini ham hamisha e’tiborda tutgan.

Ehtimol, mang‘itlik baxshilarning bir dostonni turkmanlar, qoraqalpoqlar, o‘zbeklar orasida ham ularning tilida kuylay olganlari bunga sababdir. Masalan: Karam Sulton aytdi: “Ikki quloch yip toping, bir uchini bo‘ynima, bir uchini otding **quyruqina (zig‘irig‘ina)** boylang, G‘irot hunkillaganda, yiqilib qolmin” (Xudirgan baxshi, Qirq minglar. 21). Karam Sulton... G‘irotga bir **ta’zan (qamchi)** chakib, tepildirib yubordi, G‘irot hunkillab-xunkillab ketdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar. 21).

**Qo‘shoq - qo‘sh** (a+belb) **oq** (g‘) - qo‘sha (ikki) o‘raladigan belbog‘, ya’ni belni ikki-uch marta aylantirib o‘raladigan, odatda ikki-uch metr gazlamadan tayyorlangan belbog‘. Qo‘shoqni qadimda belni mahkam tutib turishi uchun erkaklar beliga bog‘lab yurishgan. Hozirda xorazmcha milliy raqs ijro etishda raqqoslar beliga bog‘lashadi. Bundan tashqari, xorazmliklar udumiga ko‘ra, qo‘shoq to‘y kuni kuyovning beliga bog‘lanadi va yangalar tomonidan yechib olinadi. Uni kuyovnavkarlardan birontasi olib qo‘yadi, to‘ydan keyin o‘tkaziladigan ziyofat kuni yana kuyovga qaytariladi.

Pichoq aytur, men yarogam,

**Qo‘shoq** ostinda turaram.

Yomon kuninda keragam,

Quchoqlashma bo‘lan chog‘da. (Xudirgan baxshi, Qirq minglar.10).

**G‘oli (g‘ali)** - qimmatbaho gilam turi, masalan: Xiva g‘ali, turkman g‘ali. ... dog‘ning chigilim (mayda) toshinnan bir g‘oli xurjunni to‘ldirib, og‘zina qulfni urdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 23).

**G‘o‘ch** - yigitlarning ijobiy xislatlarini izohlaydi. Matndagi o‘rniga muvofiq g‘ayratli, kuchli, zabardast, ishchan, bilimdon, navqiron, ko‘pchilikni o‘ziga ergashtira oladigan so‘zamol, kelishgan, shirinso‘z ma’nolarini ifodalaydi. Hozirda uning er yigit, haqiqiy yigit, yigitmisan yigit, yigitlarning xo‘rozi, yigitlarning sultoni kabi sinonimlari ishlatiladi. Dostonlar tilida mard, qahramon ma’nolarida qo‘llanadi:

**G‘o‘ch** yigitga tiydi davron,

Qizilboshga bo‘ldi armon.

Go‘ro‘g‘li aytur: Shoyimardon

**G‘o‘ch** yigitting yo‘lin ochdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar. 25).

**G‘o‘ch** yigit kirsa maydona,

To‘rtin sanchib, beshin go‘zlar.

Arab ot kirsa maydona,

Ucha dog‘lar boshin go‘zlar (Ahmad baxshi, Qirq minglar.19).

Dostonda bu so‘zning kichraytish va erkalash kabi sub’ektiv baho shaklida qo‘llanishi ham kuzatiladi:

**G‘o‘ch** qo‘zidan do‘nan qo‘zi **g‘o‘ch** bo‘lar,

**G‘o‘ch** yigitdan **g‘o‘chchoq** do‘rar, sultonim (Xudirgan baxshi, Qirq minglar. 2).

**Durma** (qilich) -bu so‘z uzoq muddat ishlov berilib tuzatilgan, kichikroq hajmli, xanjarga o‘xshash, yoysimon, keskir qilichni anglatgan: Go‘ro‘g‘li kissasinnan **durma qilichini** chig‘arib, oboylab turdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 5). Bul so‘zdi aytgan vaqtinda Go‘ro‘g‘liga quvvat paydo bo‘ldi, irg‘ib yerinnan turdi, kissasinnan **durma qilichdi** oldi Loyxo‘rning bo‘yninnan urib yubordi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 24).

**Gandiz/g‘ondoz** - hayvonlar sonining yuqori qismi: Chaman yobining **gandizina** qars-qurs qo‘ndirib, to‘ppa-to‘g‘ri Laka poshsho, Hinkor poshshoning oldina borib salom berdi (Ahmad baxshi, Qirq minglar: 17). Go‘ro‘g‘li chaman yobining **g‘ondozina** qars-qars ko‘ndirib keta berdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar:3).

**Serdo‘pa** - boshning tepe qismi, boshlanish nuqtasi:

Chashmir aytur, mening ishim,

O‘n ikki poradir boshim,

Dubulg‘a bilan savoshim

**Serdo‘padan** uran chog‘da (Ahmad baxshi, Qirq minglar. 20).

**Eran / iran** - fazilatli, yetishgan,botir (116:505).

Ey yoronlar, musulmonlar.

Qizilboshlar maydon ochdi,

**Iranlardan** yetti himmat,

**Yazitlar** bosilib qochdi. (Xudirgan baxshi, Qirq minglar. 25).

**Yazit** - Eronning markaziy qismidagi Yazid shahri aholisiga nisbat berish asosida, shuningdek, mahalliy tilga moslab, **z** va **t** tovushlari orasiga **i** unlisi qo‘shilgan bo‘lishi ehtimoli bor ( Yuqoridagi misolga qarang).

**Anjomlashmoq** - bu so‘zni tabiblik asbob-uskunalar bilan yurgan ma’nosida, umuman, kasbiga muvofiq narsalar bilan quronanmoq ma’nosida tushunmoq kerak. Masalan: Podsholikda **anjomlashib yurgan** tabiblar bir chuvol quloq-burunni chetga chiqarib piyoz to‘kan yali etib, to‘kib tashladi (Ahmad baxshi, Qirq minglar.19). Bu so‘z Xudoybergan baxshi variantida **jamlashib** so‘zi bilan almashtirilgan: Podsholikda **jamlashib** o‘tirgan tabib-doktorlarga poshsholar aytdi... (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 24). Birinchi variantdagi **yurgan** so‘zi ikkinchi variantda **o‘tirgan** so‘zi bilan almashganligi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlagan, asosiy voqealarni qulqoq-burun yopishtirishga zarar yetmagan.

**Yozdirmay** - qimirlashga, ketishga, umuman biror harakat qilishga imkon bermay ma’nosiga ega: Qirq ot Go‘ro‘g‘lini ko‘rgannan davaragini qamab **yozdirmay**

turavirdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar: 7).

**Suxangarchiliq** - turli bahona, sabablarni ro‘kach qilib, ishning amalga oshishini keyinga surish: Bu poshsho aytdi: Ay, Arslonboy! Bu qizing yetti yoshinnan o‘n sakkiz yoshina chiqqanchalli uch yuz oltmshi polvon yigitlardi o‘ldirdi. O‘zi xon, o‘zi poshsho bo‘ldi. So‘nginda Oshiq Oydin pirdan yengilganda, munga navchun **suxangarchiliq** qilasan? (Xo‘jyoz baxshi, Xirmondali: 56-57). Qisman, adabiy tildagi safsatabozlik ma’nosiga ham to‘g‘ri keladi.

**Zingmoq** – uloqtirmoq.<sup>2</sup> “So‘pilar, silar pirdi yo‘klab o‘tiribsanmi?”, - deb u so‘pini unda urdi. U sallani unda **zingdi**, bu sallani munda **zingdi** (Xo‘jyoz baxshi, Xirmondali:34). Bu tasvirlarda Go‘ro‘g‘lining bir oz chapaniligi o‘z aksini topgan.

**Noymit** - bu so‘z ikki ma’noga ega: epchil, chaqqon; uddaburon; mug‘ombir: Hasanxon urushdi ko‘p ko‘rgan **noymit** edi, qilich tiyinnan . qochdi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar:13).

**Irkilmaslik** - bu so‘zda adabiy tildagi bir necha so‘z va so‘z birikmalarining umumlashma ma’nosni mavjud deb ko‘rsatish mumkin. Masalan, o‘ylanib o‘tirmasdan, kutib turmasdan, ushlanmasdan, ikkilanmasdan, qayg‘urmasdan, qo‘rmasdan, bo‘lmaq‘ur xayollarga bormasdan, xavotirlanmasdan kabi. Go‘ro‘g‘li oytti: “Mening alomat qo‘organimdi sho‘rdan bilasiz: qirq to‘rt poshshoning qirq to‘rt tuvi bor, shulardan bir tuv yig‘ilsa, **irkilmay** boravering” (Xudirgan baxshi, Qirq minglar:17).

**Ho‘ngkullamak** - otning orqa oyoqlari bilan yuqori ko‘tarilishi, shattalashi: Karam Sulton G‘irotni bir dapishtirib qo‘ya berdi. G‘irot Karam Sultonni ko‘kka otib, **ho‘ngkullamakka** qaradi (Ahmad baxshi, Qirq minglar: 22). “Men mingannan keyin bir arqon topib, ikki oyog‘imni otning bag‘rining teyindan bog‘lang **ho‘ngkullaganda** yiqilib qolmayin”, - dedi (Ahmad baxshi, Qirq minglar: 21).

**To‘pilmoq** - qurol o‘qtalmoq, hamla qilmoq: Poshsholar askarlariga: “**To‘piling** zang‘arning ustina!” - deb buyurdi. Askarlar birdan **to‘pildi** (Xudirgan baxshi, Qirq minglar:24).

Shimoliy Xorazm dostonlarining o‘ziga xos leksik birliklaridan biri **zang‘ar** so‘zidir. Bu so‘z doston matnidagi dialoglarda, ayniqsa, ko‘p qo‘llanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday izoh berilgan: (f-t) so‘k. “Bachchag‘ar, la’nati”.<sup>3</sup> Mulohaza qilib ko‘rilsa, bu so‘zning fors-tojik tilidagi asl ma’nosidan siljigani hisobga olinsa, izoh to‘g‘ri berilgan. Uning asl ma’nosni xotini g‘ar sifatida tushunilishi zarur. Doston tilida beg‘araz bir murojaat sifatida qo‘llanishidan uning bosh ma’nosni unutilgan deb hisoblashimiz mumkin. Misollarga e’tibor bering:

Xabarni besh otlidan so‘ra. Shul borishda Inkor poshsho, Laka poshsholarning oldiga bordi. Poshsholar ko‘rib aytdi:

- Xabaringni ber!
- Avlodи kuygur Go‘ro‘g‘lining yurtina bormang, - dedi.
- Ha, ne bo‘ldi, **zang‘ar**?

- Bir qo'sh solib yurgan do'g'masining etgan holi shu, - dedi. (Ahmad baxshi, Qirq minglar.5).

Unda Xunxor aytdi:

**-Zang'ar**, sen turkman uli, gapingni topding! Sening gunohingdan o'tdim. Seni ko'p sozanda-shoir deb eshitar edim... (Axmad baxshi, Qirq minglar. 20).

Bu so'z erkak kishining nutqida ayolga nisbatan ham, ayolning nutqida erkakka nisbatan ham qo'llanaveradi:

Qirmondali oytti:

- Sen, shappotdek bo'lip, bizding onamizg'o ham, o'zimizg'o ham oshiq bo'lip keldingma?

Unda Karam o'g'lon oytti:

-Ey **zang'ar**, sen tushunmay o'tiroson. Men: "Oshiq bo'ldim onasining qizina", - dedim (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali: 40).

Ko'ro'gli so'zi:

- Biza yo'l oziq besh-olti bo'sa berib yuvor!

-Ey **zong'ar**, man sanga bo'sa bermasman...(Xo'jyoz baxshi, Xirmondali: 18).

**Zang'ar** so'zi gapda boshqa vazifalarda ham qo'llanadi:

Ko'ro'g'li poyondozg'ada qaramadi. Poyondozdanam otlab, siyrib boravirdi. Qirmondali oytti: "Kampirim oytib keldi, bir ayvi bor dep. Bu **zang'arding** turmushi ayb akan" (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali:10).

Go'ro'g'lining bu so'zi Xunxorning qulog'ina bordi. Xunxor aytdi:

-Bu **zang'arning** G'iroti o'ziga munosib ekan. Bu G'irotni o'ziga olib borib bering... (Ahmad baxshi, Qirq minglar. 22).

Demak, bu so'z Shimoliy Xorazm dostonlarida fors-tojik tilidagi ma'nosidan siljigan holda qo'llanadi. Uning bu xususiyatini ayolga nisbatan ham, erkakka nisbatan ham qo'llanishi tasdiqlaydi.

Mazkur holat respublikamizning boshqa dostonchilik maktablari vakillari ijodi bilan qiyoslanganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularda **zang'ar** so'zining ayni funksiyasini **bachchag'ar** so'zi bajarar ekan. Bu so'zning takdiri ham zang'ar so'zining qismatiga o'xshash. Chunki, bu so'zning ma'nosi fors tilida **g'arning bolasi** ma'nosiga ega bo'lib, dostonda bu ma'noda ishlatilmaydi, bu so'zning ma'nosida ham siljish ro'y bergen, u dostonda **la'nat** ma'nosida qo'llanadi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Ravshan" dostonidan keltirilgan quyidagi misollar bunga dalildir:

Og'a Yunus pari: - Ey bolam, Avazxonni nega urushasan? Menga aytgin, anglab bilib olayin, - desa, bola har o'ksiydi, gapirolmaydi.

-E ena! Avazning qiziga bovam Go'ro'g'libek sovchi bo'lib borgan ekan. Avaz:

- Qizimni bermayman, mening tengim emas, - deb, bizni quzg'un, o'zini lochin tutdi. **Bachchag'ar**, Avaz, bizdan ortiq bo'lib ketibdi.

Ravshanbek buni ko'rib, hushi uchib: "O'bbo, **bachchag'ar kampir**, otam

aytgan mastonning o‘zi ekan, bo‘lmasa, bu **bachchag‘ar** ko‘pkari chopadi debmiding..."

Unda jallodlar, mirg‘azablar: - Mana bunga qara, **bachchag‘ar**, Shirvonday yurtda shunday bir o‘zbek yo‘qmikan?- deb jo‘nadi.<sup>5</sup>

Ko‘rinadiki, Xorazm dostonlarida adabiy tilda qayd etilmagan leksik birliklar anchagina. Ular doston tilida asosan, nominativ-tasviriy vazifa bajaradi, dostondagi shaxslar, voqea-hodisalarini, ularning belgisini va harakatini bildiradi, xarakterlaydi. Xullas, ijrochi bilan tinglovchi tomoshabinlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydi. Ularning ko‘pchiligi tilimiz tarixini, undagi o‘zgarishlarni, shevaviy xususiyatini o‘zida aks ettiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek shevalaridagi leksik mosliklar va ularning adabiy tilga munosabati//Uzbek shevalari leksikasi. -Toshkent, 1966.-B. 17.
2. Abdullaev F.A. Xorazm shevalari. -Toshkent: Fan, 1961. -346 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 t. - Moskva: Rus tili, 1981. -715 6.
4. Abdurahmonov X. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo‘yicha kuzatishlar. -Toshkent: Fan,1971. -184 b.
5. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Ravshan.- Toshkent: Fan,1976. -208 b.